

URUSHDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING FAOLIYATI

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В ПОСЛЕВОЕННЫЕ ГОДЫ

ACTIVITIES OF PRESCHOOL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN IN THE POST-WAR YEARS

Irodaxon Rasulovna Tishabayeva

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali O‘zbek tili va gumanitar fanlar
kafedrası dotsenti, PhD*

e-mail: tishabayevairodaxon@gmail.com

Tel: +998 91 651 51 36

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalari tarixi ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, hududiy farqlar, aholi joylashuvi yoki mahalliy hokimiyat tomonidan bolalar bog‘chalariga e‘tibor haqidagi ma‘lumotlar tadqiqot doirasiga tortilgan. Bundan tashqari, qishloq joylaridagi maktabgacha tarbiya muassasalarini kengaytirish masalalari ham bayon qilingan.

Аннотация:

В данной статье на основе научной, исторической литературы и источников освещена история дошкольных учреждений в Узбекистане в годы после Второй мировой войны. Кроме того, информация о территориальных различиях, населении или внимании к детским садам со стороны местных властей была взвешена в рамках исследования. Кроме того, были затронуты вопросы расширения дошкольных учреждений в сельской местности.

Annotation:

This article covers the history of preschool institutions in Uzbekistan in the years after World War II on the basis of scientific, historical literature and sources. Also, information about territorial differences, settlement or attention to kindergartens by local authorities has been drawn into the scope of research. In addition, issues of expanding preschool institutions in rural areas are also described.

Kalit so‘zlar:

kolhoz, inspektor, tahlil, bolalar bog‘chalari, qishloq, bolalar maydonchasi, muassasa, tarbiyalanuvchi, lavozim, dala yasli-bog‘cha.

Ключевые слова:

колхоз, инспектор, анализ, детские сады, поселок, детская площадка, учреждение, воспитанник, должность, поле ясли-сад.

Keywords:

collective farm, inspector, analysis, kindergartens, village, playground, institution, educator, position, field-kindergarten.

Urush boshqa ittifoqdosh respublikalar kabi, O‘zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta zarar etkazdi. Boshqa sohalar bilan bir qatorda, maktabgacha ta‘lim tizimida ham qator muammolardan biri qamrov darajasi urushdan oldingi holatdan pasayib ketdi. Mazkur ma‘lumotlar 1946-yilda O‘zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olish holati va uning 1940-yilga nisbatan o‘zgarishini tahlil qilishda yordam beradi. 1940-yilda Qoraqalpog‘iston

ASSR da urushdan oldin 1033 nafar bolalar tarbiyalangan bo'lsa, 1946-yilda bu ko'rsatkich 794 nafarni tashkil etib, 25 foizga kamaydi. Bu kabi kamayish Surxondaryo oblastida ham kuzatilgan. Ushbu oblastda 1940-yilda 493 nafar bola maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalangan bo'lsa, 1946-yilda bu raqam 421 nafargacha kamaygan [4.250.]. Bu holat 16,2 foizga qisqarish demakdir. Bunday xolat boshqa hududlarda ham qayd etilgan.

Shunga qaramay, ayrim hududlarda aksincha, qamrov ortganligini arxiv manbalarida qayd etilgan. Masalan, Xorazm oblastida, 1940-yil - 47 nafar bola maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalangan bo'lsa, 1946-yilda - bu ko'rsatkich 388 nafarga yetgan, ya'ni 17,6 foizlik o'sish kuzatilgan [4.250.]. Buning sabablari hududiy farqlar, aholi joylashuvi yoki mahalliy hokimiyatning bolalar bog'chalariga ko'proq e'tibor qaratishi bilan bog'liq.

1948-yilda ham bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb qilish talab darajasida bo'lmagan. Respublika bo'yicha vodiy oblastlarida bolalarning doimiy bolalar bog'chalariga qatnov ko'rsatkichi boshqa oblastlarga nisbatan ancha yuqori edi, shunga qaramay maktabgacha yoshdagi bolalar umumiy soniga nisbatan hisoblaganda, foiz ko'rsatkichlari juda past edi. Xususan, Andijon oblastida jami maktabgacha yoshdagi bolalar 11379 nafarni tashkil etgan bo'lsa-da, 2 ta bolalar bog'chasi qurilgan va unga 145 nafar bola qatnagan xolos (1,27 foiz), Namangan oblastida 1 ta bolalar bog'chasi foydalanishga topshirilgan va una 10 ming nafar bolalarning 140 nafari jalb etilgan (1,4 foiz), Farg'ona oblastida 8944 nafar bolalarning 180 nafari 1 ta doimiy bolalar bog'chasiga qamrab olingan (2,0 foiz). Bu holat boshqa viloyatlar va shaharlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda quyidagi holat ko'zga tashlanadi, jumladan, Toshkent shahrida 2 ta doimiy maktabgacha ta'lim muassasasiga 500 nafar bolalar jalb qilingan (10,2 foiz), Samarqand oblastida 1 ta bolalar bog'chasida 120 nafar bolalar qamralgan (4,6 foiz), Buxoro oblastida 2 ta bolalar bog'chasida 260 nafar bolalar tarbiyalangan (11,9 foiz)) [5.27.].

1948-1949-yillarda Qashqadaryo oblast Koson rayoni markazida 2 ta yasli, 3 ta bolalar bog'chalari, 58 ta mavsumiy bolalar bo'g'chalari tashkillangan [2.92.].

Urushdan keyingi yillarda respublika qishloq joylaridagi maktabgacha tarbiya muassasalarini kengaytirish masalalari ham e'tibordan chetda qolmadi. Bu nafaqat o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiya manfaatlari uchun, balki mehnat kuchiga talab ancha kuchli bo'lgan qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan. Paxta dalalari va chorvachilik fermalarida asosiy mehnat ayollar, ya'ni onalar tomonidan bajarilgan. Xotin-qizlarni ishlab chiqarish va ommaviy-siyosiy ishlarda yanada faol qatnashishlarini ta'minlashda bolalar yaslisi hamda bog'chalarining roli katta edi. Shu munosabat bilan O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1948-yil 16-martda «Kolxoz bolalar maydonchalari ahvolini yaxshilash to'g'risida»gi va 1949-yil 25-fevralda «Ekin ekish davrida kolxozchilarga madaniy, tibbiy-sanitar xizmat ko'rsatish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qabul qilingan [1.93.]. Bu qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida kolxozlarda mavjud bolalar maydonchalarini obodonlashtirish va yangi bolalar bog'chalarini barpo etish ishlari jadal boshlab yuborilgan.

Statistik ma'lumotlar bu kabi bog'chalar qancha bolalarni qamrab olganligi haqida aniq raqamlar beradi. 1948-yilda Samarqand oblastida 22 ta rayon bo'lib, har

bir rayonda bolalar bog'chalari tashkillangan. Arxiv hujjatlarida 1946-yil 1-yanvar holatiga 96 ta bog'chalari mavjudligi hamda 6181 nafar bolalar qamrab olinganligi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Oblast kolxozlarida 800 ta bolalar bog'chalari bo'lib, 25000 nafar bolalar jalb qilingan. Bu davrda maktabgacha tarbiya inspektor lavozimi faqat oblastdagi boshqarmada bo'lgan. Shahar va rayon Xalq ta'limi bo'limlarida bu lavozim bo'lmagan [3.1.].

1950-yil 7-aprelda O'zbekiston SSR Maorif Ministrligi tomonidan 328-son «Kolxozchi ayollarga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish uchun kolxozlarda bolalar muassasalari tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda yangi maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Xususan, 1950-yilda Namangan oblasti shaharlarida 466 ta, qishloqlarida 316 ta, jami 782 ta maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat olib borgan. Andijon oblastida shaharlarda 349 ta, qishloqlarida 331 ta, jami 680 ta bolalar bog'chalari va yaslilari bo'lgan. Farg'ona oblastida esa shu yili shaharlarda 730 ta, qishloqlarda 314 ta, jami 1044 ta maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat yuritgan. Shu yili mavsumiy bolalar bog'chalari va yaslilari Namanganda 77 ta, Farg'onada 50 tani tashkil etgan. Sanatoriy tipdagi bog'chalar Andijonda 65 ta, Namanganda 77 ta, Farg'onada 130 ta bo'lgan. Bundan tashqari, Farg'ona oblastida 25 ta, Namanganda 77 ta kechayu-kunduz ishlaydigan bolalar bog'chalari faoliyat olib borgan. Andijon oblastida mavsumiy va kechayu-kunduz ishlaydigan bolalar bog'chalari bo'lmagan [6.16.].

XX asrning 50-yillarida Farg'ona vodiysi kolxozlarida deyarli bir xil sharoit bo'lgan. Shunga qaramay, Andijon oblastida mavsumiy maktabgacha tarbiya muassasalari tashkillanganligi haqida ma'lumotlar berilmagan. Chunki, har bir kolxoz eng kamida 10 ta brigadalardan tashkil topgan bo'lib, bu brigadalarining har birida eng kamida 30 nafar ayol ishlagan. Bu ayollarning farzandlari brigadalarga qarashli shiyponlarda tashkil qilingan bolalar mavsumiy bog'chalari va yaslilarida tarbiyalangan. Kolxozchi ayollar shiyponlardan uzoqroq yerlarga ishlagani borganda ularning bolalari uchun brigada yaslilari tashkillangan. Bu yaslilar dalalar chetidagi tutqatorlarga osilgan belanchaklardan iborat bo'lgan.

1950-yilda Farg'ona vodiysi kolxozlarida bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olish jarayoni nisbatan yaxshilandi. Jumladan, 1950-yilda Farg'ona oblastida 50 ta doimiy kolxoz bolalar bog'chalari bo'lib, ularda 1410 nafar bola tarbiyalangan. Andijon oblastida 75 ta doimiy bolalar bog'chalari bo'lib, ularga 1954 nafar bolalar qatnagan. Namangan oblastida 68 ta bolalar bog'chalari bo'lib, 1289 nafar bolalar qamrab olingan [7.145.]. Bunday bog'chalar tashkil etilishining eng yuqori ko'rsatkichlari Farg'ona vodiysi oblastlarida kuzatilsa-da, bu boradagi reja o'z vaqtida bajarilmagan.

Bu davrda qishloqlarda xotin-qizlarni dala ishlariga yanada ko'proq jalb etish maqsadida yasli va bog'chalar zo'r berib ko'paytirilgan. 1950-yili Namangan oblastining barcha kolxozlarida maktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo'lib, 13 ta kolxozdagi bolalar bog'cha va yaslilari namunali deb topilgan. Shu yili 3360 nafar kolxozchi ayollarning bolalari yasli va bog'chalarga joylashtirilgan, onalar yalpi paxta yig'im-terimiga jalb etilgan [8. 16.]. Uychi rayonida reja bo'yicha 51 ta bolalar maydonchalari 1635 nafar bolalarni qamrab olishi ko'zda tutilib, amalda 35

ta bolalar maydonchalari tashkil etilgan va 1140 nafar bola jalb etilgan, xolos [9.2.]. Pop rayonida esa klub, teatr kabi madaniy-maishiy binolar bilan bir qatorda bog'cha, maktab binolari ham yetishmagan, sog'liqni saqlash idoralarining faoliyati aholi ehtiyojini qondira olmagan [10.73.].

Ko'p hollarda kolxoz ma'muriyatlari maktabgacha tarbiya muassasalari uchun binolar ajratishda mas'uliyatsizlik bilan yondashgan. Aksariyat bog'chalar foydalanishga yaroqsiz binolarda, bir-ikki xonali moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. Xususan, Farg'ona oblastidagi maktabgacha tarbiya muassasalari joylashgan 271 ta binosidan faqat 13 tasida 5 ta xona bo'lgan, xolos. Natijada bog'cha tarbiyalanuvchilari tarbiyachilar, oshpazlar yoki kolxozchilarning uylarida tarbiyalangan. Bog'cha uchun ajratilgan binolar kolxoz raislari tomonidan boshqa maqsadlarda – omborlar, pilla saqlash xonalari kabilarda ishlatilgan. Masalan, 1950-yilda Farg'ona oblasti Quva rayonidagi «Kaganovich» nomli kolxoz bolalar bog'chasi binosida ipak qurti boqilgani uchun bolalar ma'lum vaqt ko'chada tarbiyalangan. Vodil rayoni «Hosilot» kolxozining bolalar bog'chasi esa otxona hovlisida joylashgan. Farg'ona oblasti Kuybishev rayonidagi «Kirov» nomli kolxoz hamda Qo'qon rayonidagi «Stalin» nomli kolxoz bolalar bog'chalari kolxozchilarning uyida, Andijon oblasti Lenin rayonidagi «Stalin» nomli kolxoz bolalar bog'chasi oshpazning uyida, Namangan oblast To'raqo'rg'on rayonidagi «Kalinin» nomli kolxozning bolalar bog'chasi kolxoz hisobchisining uyida tashkil etilgan edi. Andijon shahridagi 8-bolalar bog'chasi podvalli binoda joylashgan, podval yonuvchi mahsulotlarga to'la bo'lganligi bois, bino yong'in xavfsizligi qoidalariga javob bermagan [11.39.]. Farg'ona oblasti Frunze rayonidagi bolalar bog'chasi bitta xonadan iborat bo'lgan, xolos. Oxunboboyev rayonidagi bolalar bog'chasi hududida esa begona shaxslar ham yashagan [12.3.].

Bu kabi bog'chalar keyingi yillarda ham faoliyat ko'rsatishda davom etgan. 1960-1970-yillarda Andijon oblast Qo'rg'on tepa rayonidagi «Kuybishev» nomli kolxozda bolalar bog'chasi qurilgandan so'ng, yarim yil davomida shifoxona faoliyat olib borgan, keyin ipak qurti boqiladigan binoga aylantirilgan. 1970-yilga kelib bino ta'mirga muhtoj bo'lganda, unda 50 o'rinli mavsumiy bolalar bog'chasi joylashtirilgan. «Oyim» sovxozi, «Navoiy», «Pobeda», «Illich», «Qahramon», «To'qtagul» kabi kolxozlarda ham ahvol shu tarzda edi [13.19.].

1950-yilda Namangan shahrida 9 ta doimiy va 1 ta sanatoriy tipdagi maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lgan. Ularga jami 539 nafar bolalar qatnagan. Bu maktabgacha tarbiya muassasalarida 1 tadan 4 tagacha guruhlar faoliyat yuritib, umumiy hisobda bitta guruhda 25 nafar tarbiyalanuvchi bo'lgan [14.16.]. Shuningdek, boshqa tashkilotlar qoshida 8 ta doimiy bolalar bog'chalari bo'lib, ular 310 nafar bolalarni qamrab olgan. 14 ta rayonning har birida 1 tadan doimiy bolalar bog'chalari bo'lib, ularda 396 nafar bolalar tarbiyalangan. Shu yili Farg'ona oblastining Farg'ona shahrida 4 ta doimiy bolalar bog'chasida 250 nafar bola, Marg'ilon shahridagi 6 ta doimiy bolalar bog'chasida 235 nafar bola, Qo'qon shahrida 3 ta doimiy bolalar bog'chasida 225 nafar bola tarbiyalangan. Gorchakov (Marg'ilon shahrining tarkibiy qismi) posyolkasida 1 ta doimiy bolalar bog'chasi bo'lib, unda 20 nafar bola tarbiyalangan. Farg'ona oblasti rayonlarida esa 17 ta

bog'chalar bo'lib, ularda 370 nafar bola tarbiyalangan. Oblast bo'yicha jami 47 ta doimiy bog'chalar bo'lib, ular 1100 nafar tarbiyalanuvchilarni qamrab olgan [7.6.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ишанходжаева О. Педагогические основы становления и развития общественного дошкольного воспитания в Узбекской ССР (1924-1980 гг.) Дисс. на соиск. уч. степ. докт. пед. наук. – Ташкент, 1990.
2. QVDAning Qarshi filiali, 31-fond, 1-ro'yxat, 271-ish, 92-varaq.
3. O'zMA, 2591-fond, 1-ro'yxat, 109-ish, 1-varaq.
4. O'zMA, 94-fond, 5-ro'yxat, 4781-ish, 250-varaq.
5. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 5117-ish, 27–37-varaq.
6. O'z MA, R.94-fond, 8-ro'yxat, 5-ish, 16-varaq.
7. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 5497-ish, 6, 107,145-varaq.
8. Турсунмухамедова А. Болалар муассасалари ишларини йўлга қўйиш мўл ҳосил гаровидир //Ўзбекистон хотин-қизлари. 1951. – №6.
9. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 5500-ish, 2-varaq.
10. Namangan VDA, 275-fond, 1-ro'yxat, 580-ish, 73-varaq.
11. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro'yxat, 291-ish, 39-varaq.
12. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 5491-ish, 3-varaq.
13. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro'yxat, 501-ish, 19-varaq.
14. Namangan VDA, 12-fond, 2-ro'yxat, 47-ish, 16-varaq.